



ISSN: 2181-9416

4-SON, 2026

# YURIST AXBOROTNOMASI

ВЕСТНИК ЮРИСТА \* LAWYER HERALD

HUQUQIY, IJTIMOY, ILMIY-AMALIY JURNAL



CYBERLENINKA



НАУЧНАЯ ЭЛЕКТРОННАЯ  
БИБЛИОТЕКА  
LIBRARY.RU

**YURIST AXBOROTNOMASI**

4-SON

**ВЕСТНИК ЮРИСТА**

HOMEPI 4

**LAWYER HERALD**

ISSUE 4



**YUSUPOVA Faringiz O'ktam qizi**

O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi huzuridagi  
Yuridik kadrlarni qayta tayyorlash va malakasini  
oshirish instituti dotsenti v.b.,  
yuridik fanlar bo'yicha falsafa doktori (PhD)  
ORCID: 0000-0002-8202-2160  
E-mail: [Faringiz002@gmail.com](mailto:Faringiz002@gmail.com)

## **TIBBIY XIZMATLAR KO'RSATISHDA MANFAATLAR TO'QNASHUVI: HUQUQIY TARTIBGA SOLISH MUAMMOLARI**

**Iqtibos keltirish uchun (для цитирования, for citation):** YUSUPOVA F.O'. Tibbiy xizmatlar ko'rsatishda manfaatlar to'qnashuvi: huquqiy tartibga solish muammolari // Yurist axborotnomasi – Вестник юриста – Lawyer herald. № 4 (2026) B. 177-185.

 4 (2026) DOI <https://doi.org/10.34920/2181-9416/2026/4-019>

### **ANNOTATSIYA**

Maqolada tibbiy xizmatlar ko'rsatishda manfaatlar to'qnashuvining yuzaga kelish sabablari, namoyon bo'lish shakllari va huquqiy tartibga solish muammolari tahlil qilinadi. Shifokor, tibbiyot muassasi, farmatsevtika kompaniyalari, diagnostika markazlari hamda sug'urta tashkilotlari o'rtasidagi moliyaviy yoki tashkiliy aloqalar bemor manfaatlari, tibbiy yordam sifati va kasbiy xolislikka salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkinligi asoslab beriladi. Mazkur maqolada tibbiy xizmatlar ko'rsatish jarayonida manfaatlar to'qnashuvining huquqiy va etik mohiyati tahlil qilinadi. Unda shifokor, tibbiyot muassasi hamda farmatsevtika kompaniyalari o'rtasidagi moliyaviy, tashkiliy yoki shaxsiy manfaatdorlik bemorning sifatli, xolis va xavfsiz tibbiy yordam olish huquqiga qanday ta'sir ko'rsatishi yoritiladi. Maqolada manfaatlar to'qnashuvining asosiy elementlari – asosiy manfaat, ikkilamchi manfaat va ularning o'zaro ziddiyati ilmiy-nazariy jihatdan ochib berilgan. Shuningdek, dori vositalarini targ'ib qilish, shifokorlarga sovg'alar berish, homiylik va farmatsevtika savdo vakillari bilan munosabatlarning tibbiy qarorlar mustaqilligiga ta'siri xorijiy tajriba asosida tahlil qilingan. Maqolada O'zbekiston qonunchiligida manfaatlar to'qnashuvini tartibga solishning mavjud huquqiy asoslari ko'rib chiqilib, ushbu sohada manfaatlarni oshkor qilish, ichki nazorat va javobgarlik mexanizmlarini kuchaytirish zarurligi asoslab beriladi.

**Kalit so'zlar:** tibbiy xizmatlar, manfaatlar to'qnashuvi, bemor huquqlari, tibbiy etika, shifokor mas'uliyati, xabardor rozilik, kasbiy xolislik, farmatsevtika kompaniyalari, ichki nazorat, huquqiy tartibga solish.

**ЮСУПОВА Фарингиз Уктамовна**

И. о. доцента Института переподготовки и  
повышения квалификации юридических кадров при  
Министерстве юстиции Республики Узбекистан,  
доктор философии (PhD) по юридическим наукам  
ORCID: 0000-0002-8202-2160  
E-mail: [Faringiz002@gmail.com](mailto:Faringiz002@gmail.com)

## КОНФЛИКТ ИНТЕРЕСОВ ПРИ ОКАЗАНИИ МЕДИЦИНСКИХ УСЛУГ: ПРОБЛЕМЫ ПРАВОВОГО РЕГУЛИРОВАНИЯ

### АННОТАЦИЯ

В статье анализируются причины возникновения, формы проявления и проблемы правового регулирования конфликта интересов при оказании медицинских услуг. Обосновывается, что финансовые, организационные либо личные связи между врачами, медицинскими учреждениями, фармацевтическими компаниями, диагностическими центрами и страховыми организациями могут оказывать негативное влияние на интересы пациента, качество медицинской помощи и профессиональную объективность. В статье раскрывается правовая и этическая сущность конфликта интересов в процессе оказания медицинских услуг. Особое внимание уделяется тому, каким образом финансовая, организационная или личная заинтересованность врача, медицинского учреждения либо фармацевтической компании может повлиять на право пациента на получение качественной, объективной и безопасной медицинской помощи. В научно-теоретическом аспекте рассматриваются основные элементы конфликта интересов: основной интерес, вторичный интерес и противоречие между ними. Кроме того, на основе зарубежного опыта анализируется влияние продвижения лекарственных средств, предоставления подарков врачам, спонсорской поддержки и взаимодействия с представителями фармацевтических компаний на независимость медицинских решений. В статье также рассматриваются существующие правовые основы регулирования конфликта интересов в законодательстве Республики Узбекистан и обосновывается необходимость усиления механизмов раскрытия интересов, внутреннего контроля и юридической ответственности в данной сфере.

**Ключевые слова:** медицинские услуги, конфликт интересов, права пациента, медицинская этика, ответственность врача, информированное согласие, профессиональная объективность, фармацевтические компании, внутренний контроль, правовое регулирование.

**FARINGIZ Yusupova**

Acting Associate Professor of The Institute for Retraining  
and Advanced Training of Legal  
Personnel under the Ministry of Justice  
of the Republic of Uzbekistan,  
Doctor of Philosophy (PhD) in Law  
ORCID: 0000-0002-8202-2160  
E-mail: [Faringiz002@gmail.com](mailto:Faringiz002@gmail.com)

## CONFLICT OF INTEREST IN THE PROVISION OF MEDICAL SERVICES: ISSUES OF LEGAL REGULATION

### ANNOTATION

The article analyzes the causes, forms of manifestation, and legal regulation issues of conflicts of interest in the provision of medical services. It substantiates that financial, organizational, or personal



relationships between physicians, medical institutions, pharmaceutical companies, diagnostic centers, and insurance organizations may negatively affect patients' interests, the quality of medical care, and professional impartiality. The article examines the legal and ethical nature of conflicts of interest in the process of providing medical services. Particular attention is paid to how the financial, organizational, or personal interests of a physician, medical institution, or pharmaceutical company may influence a patient's right to receive high-quality, impartial, and safe medical care. The main elements of a conflict of interest the primary interest, secondary interest, and the contradiction between them are explored from a scientific and theoretical perspective. In addition, based on foreign experience, the article analyzes the impact of drug promotion, gifts to physicians, sponsorship, and interactions with pharmaceutical sales representatives on the independence of medical decision-making. The study also examines the existing legal framework for regulating conflicts of interest under the legislation of the Republic of Uzbekistan and substantiates the need to strengthen mechanisms for disclosure of interests, internal control, and legal liability in this area

**Keywords:** medical services, conflict of interest, patient rights, medical ethics, physician liability, informed consent, professional impartiality, pharmaceutical companies, internal control, legal regulation.

Sog'liqni saqlash tizimida tibbiy xizmatlar ko'rsatish sifati, avvalo, shifokor va bemor o'rtasidagi ishonch, kasbiy xolislik, tibbiy qarorlarning ilmiy asoslanganligi hamda bemor manfaatlarining ustuvorligiga bevosita bog'liqdir. Tibbiy xizmat ko'rsatish jarayonida shifokor yoki tibbiyot muassasasining shaxsiy, moliyaviy, tashkiliy yoxud boshqa manfaatlari bemorga nisbatan xolis va sifatli tibbiy yordam ko'rsatish majburiyati bilan zid kelgan hollarda manfaatlar to'qnashuvi yuzaga keladi. Bunday holatlar nafaqat tibbiy xizmat sifati va bemor xavfsizligiga, balki sog'liqni saqlash tizimiga bo'lgan jamoatchilik ishonchiga ham salbiy ta'sir ko'rsatadi.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 48-moddasida "har kim sog'lig'ini saqlash va malakali tibbiy xizmatdan foydalanish huquqiga ega"[1] deb belgilangan bo'lib, bu norma tibbiy xizmatlar ko'rsatishda bemor huquqlari va qonuniy manfaatlarini ta'minlash, tibbiy qarorlarning xolisligi hamda manfaatlar to'qnashuvining oldini olish sog'liqni saqlash sohasidagi muhim huquqiy kafolatlar tizimining ajralmas qismi ekanini ko'rsatadi.

M.Tonelli fikriga ko'ra "manfaatlar to'qnashuvi – bu asosiy manfaatga oid kasbiy xulosa yoki harakatlarga ikkilamchi manfaat noo'rin ta'sir ko'rsatishi xavfini yuzaga keltiradigan holatlar majmuidir". Manfaatlar to'qnashuvi moliyaviy yoki nomoliyaviy bo'lishi mumkin. Biroq moliyaviy manfaatlar to'qnashuvi ko'proq muhokama qilinadi. Buning sababi u boshqa manfaatlarga nisbatan ko'proq korrupsiyaviy xususiyatga ega ekanligida emas, balki uning obyektiv va miqdoriy jihatdan o'lchanadigan xususiyatga ega ekanligidadir [2].

Bugungi kunda tibbiyot sohasida xususiy sektorning kengayishi, farmatsevtika kompaniyalari, diagnostika markazlari, sug'urta tashkilotlari va raqamli platformalar bilan hamkorlikning ortib borishi manfaatlar to'qnashuvi xavfini yanada kuchaytirmoqda. Masalan, shifokorning muayyan dori vositalarini tavsiya etishda farmatsevtika kompaniyalari bilan manfaatdor aloqaga ega bo'lishi, bemorni o'zi manfaatdor bo'lgan diagnostika markaziga yo'naltirishi yoki tibbiyot muassasasining iqtisodiy manfaatlarini bemorning haqiqiy ehtiyojlaridan ustun qo'yishi amaliyotda turli huquqiy va axloqiy muammolarni keltirib chiqarishi mumkin.

O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligining 2024-yil 24-martdagi 88-son buyrug'ida "Tibbiyot xodimlarining odob-axloq kodeksining boshlang'ich qoidalarida tibbiyot xodimi korrupsiya va manfaatlar to'qnashuvi haqida alohida tushunchalar keltirilgan bo'lib, aynan ushbu qoidalar vazirlik tizimida faoliyat ko'rsatayotgan barcha tibbiyot muassasalarining rahbarlik xodimlari va jamoa uchun majburiy hisoblanishi ko'rsatilgan [3].

J.P.Kassirer, M.Angell fikriga ko'ra tibbiy xizmatlar ko'rsatish jarayonida manfaatlar to'qnashuvining uchta asosiy elementi mavjud: asosiy manfaat, ikkilamchi manfaat va manfaatlar to'qnashuvining o'zi. Tibbiyot sohasida asosiy manfaat, avvalo, bemorning hayoti, sog'lig'i, xavfsizligi, huquqlari va qonuniy

manfaatlarini himoya qilish, unga sifatli, xolis va ilmiy asoslangan tibbiy yordam ko'rsatishdan iboratdir. Shuningdek, tibbiy qarorlarning mustaqilligi, davolash usullarining bemor manfaatlariga mos tanlanishi, tibbiy tadqiqotlarning xolisligi hamda tibbiy ta'lim sifatini ta'minlash ham asosiy manfaatlar qatoriga kiradi [4].

Ikkilamchi manfaatlar esa tibbiyot xodimi, tibbiyot muassasasi yoki boshqa manfaatdor shaxslarning moliyaviy, kasbiy, tashkiliy yoki shaxsiy manfaatlaridan iborat bo'lishi mumkin. Jumladan, farmatsevtika kompaniyalaridan moddiy rag'bat olish, muayyan dori vositasi yoki tibbiy buyumni tavsiya etishdan manfaatdorlik, pullik tibbiy xizmatlar hajmini oshirishga intilish, kasbiy mavqeini mustahkamlash, ilmiy maqola yoki tadqiqot natijalarini e'lon qilish orqali shaxsiy obro' orttirish, shuningdek, qarindoshlar, do'stlar, hamkasblar yoki talabalar manfaatini ko'zlash ikkilamchi manfaatlar sifatida namoyon bo'lishi mumkin [5].

Ikkilamchi manfaatlarning mavjudligi o'z-o'zidan huquqbuzarlik yoki axloqiy jihatdan nomaqbul holat hisoblanmaydi. Biroq tibbiy qaror qabul qilishda ushbu manfaatlar bemorning sog'lig'i va xavfsizligi kabi asosiy manfaatlardan ustun qo'yilsa, manfaatlar to'qnashuvi xavfli tus oladi. Masalan, shifokorning farmatsevtika kompaniyasi bilan moliyaviy aloqasi bemorga eng maqbul va zarur dori vositasini emas, balki aynan ushbu kompaniya mahsulotini tavsiya etishga ta'sir ko'rsatsa, bu holat tibbiy xizmat ko'rsatishda manfaatlar to'qnashuvining yaqqol ko'rinishi hisoblanadi [6].

Manfaatlar to'qnashuvining o'zi esa uchinchi asosiy element sifatida alohida ahamiyatga ega. Tibbiyotda manfaatlar to'qnashuvi mavjud deb topilishi uchun bemorga real zarar yetkazilgan bo'lishi yoki noto'g'ri davolash qarori qabul qilingan bo'lishi shart emas. Muhimi, shifokor, tibbiyot muassasasi yoki tibbiy tadqiqotchi faoliyatida bemor manfaatlari, tibbiy xolislik yoki ilmiy halollik ikkilamchi manfaatlar ta'sirida e'tibordan chetda qolishi xavfini yuzaga keltiradigan holatlar yoki munosabatlarning mavjudligidir. Shu sababli tibbiy xizmatlar ko'rsatishda manfaatlar to'qnashuvini baholashda nafaqat amalda yuz bergan salbiy oqibatlar, balki bunday oqibatlarni keltirib chiqarishi mumkin bo'lgan xavf omillari ham inobatga olinishi lozim [7].

Demak, tibbiyot sohasida manfaatlar to'qnashuvi bemorning manfaatlari, tibbiy qarorlarning xolisligi va sog'liqni saqlash tizimiga bo'lgan ishonchga bevosita ta'sir qiluvchi muhim huquqiy va etik muammo hisoblanadi. Shu bois uni aniqlash, oshkor qilish, oldini olish va bartaraf etish bo'yicha aniq huquqiy mexanizmlarni belgilash tibbiy xizmatlar sifatini ta'minlashning muhim shartlaridan biridir.

O'zbekiston Respublikasining "Manfaatlar to'qnashuvi to'g'risida"gi Qonunida manfaatlar to'qnashuvi shaxsning shaxsiy, bevosita yoki bilvosita manfaatdorligi uning lavozim yoxud xizmat majburiyatlarini lozim darajada bajarishiga ta'sir ko'rsatayotgan yoki ta'sir ko'rsatishi mumkin bo'lgan holat sifatida belgilanadi. Bunda shaxsiy manfaatdorlik bilan fuqarolar, tashkilotlar, jamiyat yoki davlatning huquqlari va qonuniy manfaatlari o'rtasida qarama-qarshilik yuzaga kelgan bo'lsa, mavjud manfaatlar to'qnashuvi, bunday qarama-qarshilik yuzaga kelishi ehtimoli mavjud bo'lsa, ehtimoliy manfaatlar to'qnashuvi sifatida baholanadi.

Mazkur ta'rif tibbiy xizmatlar ko'rsatish sohasiga tatbiq etilganda, shifokor yoki tibbiyot muassasasining shaxsiy, moliyaviy, tashkiliy yoxud boshqa manfaatlari bemorning hayoti, sog'lig'i, xavfsizligi hamda sifatli va xolis tibbiy yordam olish huquqi bilan zid kelgan yoki bunday ziddiyat yuzaga kelishi mumkin bo'lgan vaziyatlar manfaatlar to'qnashuvi sifatida namoyon bo'ladi.

Manfaatlar to'qnashuvining xavfli jihati shundaki, u ko'pincha ochiq huquqbuzarlik shaklida emas, balki yashirin, bilvosita yoki aniqlash qiyin bo'lgan munosabatlar orqali namoyon bo'ladi. Shu sababli ushbu institutni faqat umumiy tibbiy etika qoidalari bilan tartibga solish yetarli emas. Aksincha, manfaatlarni oshkor qilish, bemorni xabardor qilish, tibbiy qaror qabul qilishda mustaqillikni ta'minlash, ichki nazorat mexanizmlarini joriy etish va javobgarlik choralari aniq belgilash orqali huquqiy tartibga solishning kompleks tizimini shakllantirish zarur.

Mazkur mavzuning dolzarbligi, bir tomondan, bemorning hayoti, sog'lig'i, sha'ni, qadr-qimmati va shaxsiy hayot daxlsizligi kabi fundamental huquqlarini himoya qilish zarurati bilan, ikkinchi tomondan esa tibbiyot xodimlarining kasbiy mustaqilligi va tibbiyot muassasalarining qonuniy faoliyatini shaffof

tashkil etish ehtiyoji bilan belgilanadi. Manfaatlar to'qnashuvi o'z vaqtida aniqlanmasa va bartaraf etilmasa, bemorga ortiqcha tibbiy muolajalar tayinlanishi, asossiz dori vositalari tavsiya qilinishi, noto'g'ri yo'naltirishlar berilishi yoki tibbiy qarorlarning iqtisodiy manfaatlar ta'sirida qabul qilinishi ehtimoli ortadi.

Shu nuqtayi nazardan, tibbiy xizmatlar ko'rsatishda manfaatlar to'qnashuvining huquqiy mohiyatini aniqlash, uning oldini olish va bartaraf etish mexanizmlarini takomillashtirish, bemor huquqlarini himoya qilishga qaratilgan samarali huquqiy kafolatlarni ishlab chiqish bugungi kunda muhim ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etadi.

Tibbiyot kasbi Gippokrat davridan boshlangan shifokor qasamyodiga muvofiq, doimo bemor farovonligini o'zining asosiy manfaati sifatida e'tirof etib kelgan. Ko'plab tadqiqotlar shifokorlar va farmatsevtika savdo vakillari o'rtasidagi o'zaro munosabatlar shifokorlarning xatti-harakatlariga ta'sir ko'rsatishini tasdiqlagan [8]. Ushbu munosabatlar ilmiy tadqiqotlar va tibbiy ta'limni qo'llab-quvvatlashdan tortib, bemorlar va shifokorlarga mo'ljallangan dolzarb ma'lumotlar hamda o'quv materiallarini taqdim etishgacha bo'lgan jarayonlarni qamrab oladi.

Xorijiy davlatlar tajribasi shuni ko'rsatadiki, ayrim mamlakatlarda, xususan Nigeriyada farmatsevtika kompaniyalari savdo vakillari bilan shifokorlar o'rtasidagi o'zaro aloqalar tibbiy amaliyotda keng tarqalgan hodisa sifatida namoyon bo'ladi Nigeriyada farmatsevtika savdo vakillari va shifokorlar o'rtasidagi bunday aloqalar keng tarqalgan. Garchi ko'plab shifokorlar farmatsevtika savdo vakillarining tashriflarini sog'liqni saqlash tizimining boshqa bo'g'inlari tomonidan yetarli darajada taqdim etilmaydigan yangi dori vositalari va tibbiy buyumlar haqidagi dolzarb axborotning samarali manbai deb hisoblasalar-da [9], tibbiyotning asosiy maqsadlariga rioya etish hamda jamoatchilik ishonchini saqlab qolish uchun bunday munosabatlarning chegaralarini aniq belgilovchi va ularni etik me'yorlar doirasida ushlab turuvchi siyosat va qoidalarni ishlab chiqish dolzarb ahamiyat kasb etadi.

Shifokorlar va farmatsevtika sanoati tomonidan dori vositalarini targ'ib qilish usullari, farmatsevtika kompaniyalari tomonidan sovg'alar berish amaliyoti, shifokorlarning farmatsevtika sanoati bilan munosabatlarga nisbatan qarashlari va munosabati, bemorlar hamda jamoatchilikning bunday munosabatlarga munosabati, shuningdek, ularning tibbiy amaliyot va jamiyatga ta'siri kiradi.

Jahon sog'liqni saqlash tashkilotining (JSST) dori vositalarini targ'ib qilish mezonlariga ko'ra, targ'ibot deganda ishlab chiqaruvchilar va distribyutorlarning dori vositalarini retsept asosida tavsiya etish, yetkazib berish, xarid qilish va/yoki ulardan foydalanishga undashga qaratilgan barcha axborot beruvchi hamda ishontiruvchi faoliyati tushuniladi [10]. Ko'plab yirik farmatsevtika kompaniyalari retsept yozish vakolatiga ega bo'lgan shifokorlarni dori vositalarining kelgusidagi savdosiga yo'l ochuvchi asosiy bo'g'in deb hisoblaydi. Shu sababli ular shifokorlarga ta'sir ko'rsatish va dori vositalarini reklama qilish, sovg'alar berish, tibbiyotga oid tadbirlarni qo'llab-quvvatlash, ba'zan esa moliyaviy rag'batlantirish orqali targ'ib qilish uchun katta mablag' sarflaydi. O'rtacha hisobda farmatsevtika kompaniyalari o'z savdo tushumlarining 20 foizi yoki undan ko'prog'ini marketingga yo'naltiradi. Bu ularga katta daromad keltirgani sababli, bunday usullardan voz kechish uchun ularda yetarli rag'bat mavjud emas [11]. Jahon farmatsevtika bozori 2019-yilda 1,25 trillion AQSh dollariga baholangan bo'lib, bu 2001-yildagi 390 milliard AQSh dollariga nisbatan sezilarli o'sishni ko'rsatadi [12].

"Detailing" farmatsevtika kompaniyalari tomonidan qo'llaniladigan yakkama-yakka marketing usuli bo'lib, unda kompaniyalar shifokorlarni o'z mahsulotlari haqida xabardor qiladi va natijada shifokorlar aynan ushbu mahsulotlarni retsept orqali tavsiya etishiga umid qiladi. Bu farmatsevtika marketingining eng asosiy usullaridan biri hisoblanadi [13]. Biroq buning salbiy oqibati shundaki, bunday uchrashuvlar shifokorlarning bemorlarni qabul qilishga sarflashi lozim bo'lgan vaqtini egallaydi. Shifokorlarga mahsulotlar bo'yicha dolzarb ilmiy adabiyotlar va hujjatlar taqdim etiladi, dori vositalari haqidagi ma'lumotlar esa ko'rgazmali vositalar, audio-vizual materiallar orqali yetkazilishi mumkin [14]. Shuningdek, farmatsevtika vakillari shifokorlarning aloqa ma'lumotlarini yig'ib, ijtimoiy tarmoqlar orqali ular bilan muntazam bog'lanib turadi hamda o'z mahsulotlarining bozordagi boshqa mahsulotlarga nisbatan ehtimoliy ustunligini eslatib boradi. Ushbu an'anaviy usulning zamonaviy

ko'rinishi "e-detailing" usuli bo'lib, bunda farmatsevtika vakillari internet, ijtimoiy tarmoqlar va boshqa veb-texnologiyalar orqali shifokorlar bilan xuddi shunday munosabatlarni shakllantiradi [15].

Dori vositalarini targ'ib qiluvchi reklama materiallari ham farmatsevtika kompaniyalarining mahsulotlarini ilgari surish va noaniq dori ma'lumotlarini tarqatishdagi muhim marketing usullaridan biridir. Bunday ma'lumotlar shifokorlarning retsept yozish amaliyotiga ta'sir ko'rsatishi mumkin. Dori vositasi haqidagi ma'lumotlar mahsulot xususiyatlari va turli marketing da'volarini o'z ichiga oladi, ularning ishonchliligi va haqiqiyligini oshirish maqsadida havolalar bilan mustahkamlanadi.

Hindistondagi dori vositalarini targ'ib qiluvchi reklama materiallarida keltirilgan da'volar va ularning ishonchliligini tanqidiy tahlil qilgan tadqiqotda da'volarni asoslash uchun berilgan 160 ta havoladan 49 tasi, ya'ni 30 foizi topib bo'lmaydigan manbalar ekani aniqlangan. Qolgan 111 ta, ya'ni 70 foiz topilgan havolalardan 92 tasi, ya'ni 83 foizi haqiqiy deb topilgan. Bu esa reklama materiallarida berilgan ma'lumotlar xolis emasligi, to'liq emasligi, yetarli darajada ishonchli emasligi va shubhali manbalarga tayanganligini ko'rsatadi [16].

Xuddi shuningdek, Nepalda o'tkazilgan tadqiqotda targ'ibot materiallarining 87,88 foizida terapevtik ko'rsatmalar qayd etilgan bo'lsa-da, ularning aksariyatida nojo'ya ta'sirlar, dorilar o'zaro ta'siri, homiladorlik va emizish davrida qo'llash bo'yicha ma'lumotlar yetishmasligi aniqlangan [17]. Pokistonda o'tkazilgan tadqiqot ham dori vositalariga oid reklama materiallari chalg'ituvchi va bo'rttirilgan deb baholanganini tasdiqlagan [18]. Ushbu natijalar rivojlangan davlatlarda kuzatilgan holatlar bilan ham o'xshashdir [19]. Garchi bunday davlatlarda tartibga solish mexanizmlari ancha shakllangan bo'lsa-da, farmatsevtika sanoatining haddan tashqari foyda olishga intilishi va tibbiyot hamjamiyatining ayrim vakillari bilan kelishuvlari natijasida bu soha hanuz ta'sir ostida qolmoqda. Dori vositalarini targ'ib qiluvchi adabiyotlarni tanqidiy tahlil qilish retsept yozish amaliyotini yanada samarali qilishi mumkin. Agar dori vositalarini targ'ib qiluvchi adabiyotlar JSS'ning barcha ko'rsatmalariga javob bersa, targ'ibot etik va oqilona tus olishi mumkin.

Targ'ibotning yana bir usuli sovg'alar berish bo'lib, ular bepul dori namunalari, mayda kanselyariya buyumlarini, konferensiyalar va ta'lim tadbirlariga safar xarajatlarini qoplashni, shuningdek, naqd pul berishni o'z ichiga oladi. Bangladeshda o'tkazilgan tadqiqotda sovg'alarning turli shakllari qo'llanilishi qayd etilgan. Ular jumlasiga ish stoli buyumlari, masalan, ruchka, bloknot, qog'oz bostirgich, kundalik; shaxsiy foydalanish buyumlari, masalan, noutbuk, soat, kiyim-kechak, taqinchoqlar; maishiy buyumlar, masalan, idish-tovoqlar, konditsioner, mebel; oziq-ovqat mahsulotlari va naqd pul kiradi [20]. Shunga o'xshash natijalar Nigeriya shifokorlari orasida ham aniqlangan bo'lib, ularga eng ko'p taklif etilgan narsalar ovqatlanish xarajatlarini qoplash va arzon sovg'alar bo'lgan.

Farmatsevtika sanoati ijtimoiy tadbirlarni homiylik qilish, ta'lim va ilmiy tadqiqot faoliyatini qo'llab-quvvatlash orqali bemorlar farovonligiga hissa qo'shadi. Ular bemorlar va jamiyat manfaatlarini yo'lida yangi bilimlarni egallashga intilayotgan tadqiqotchilarni qo'llab-quvvatlashda ishtirok etadi. Biroq dori ishlab chiqaruvchi kompaniyaning asosiy manfaati bemorlar sog'lig'i emas, balki o'z mahsuloti savdosini ko'paytirish va foyda olishdan iboratdir. Bu manfaat tibbiyot kasbinning asosiy maqsadi bilan zid keladi. Shifokorlarning muhim qaror qabul qiluvchi shaxslar sifatidagi roli farmatsevtika kompaniyalarining targ'ibot faoliyati aynan ularga qaratilishiga sabab bo'ladi. Bunday o'zaro munosabatlar turli darajalarda namoyon bo'ladi.

Shifokorlarga ko'pincha dori vositasining samaradorligini bevosita baholash uchun katta miqdorda bepul mahsulot namunalari beriladi. Keyinchalik shifokorlar ushbu namunalarni bemorlarga bepul taqdim etishlari mumkin. Biroq aksariyat shifokorlar xonalariga arzonroq generik dori vositalari namunalari yetkazib berilmagani sababli muammoli vaziyat yuzaga keladi. Natijada bemorlar generik dori vositalari mavjud bo'lsa-da, qimmatroq brend mahsulotlardan foydalanishga majbur bo'lishi mumkin.

Farmatsevtika savdo vakillari mahsulot haqida ma'lumotlarni o'z ichiga olgan hujjatlardan tashqari, kompaniya mahsulotlari sifatida ruchkalar, kundaliklar, stetoskoplar va tibbiy amaliyotda foydalaniladigan boshqa buyumlarni ham tarqatadi. Ba'zan bunday sovg'alar kasbiy faoliyat bilan bevosita bog'liq bo'lmagan qimmatbaho narsalargacha kengayadi. Masalan, uyda foydalanish uchun noutbuklar, oila



a'zolari bilan dam olish xarajatlarini qoplash, ayrim hollarda esa muayyan mahsulotlardan foydalangani uchun bevosita pul to'lash holatlari.

Uzluksiz tibbiy ta'lim butun dunyoda sifatli klinik amaliyotning muhim tarkibiy qismi hisoblanadi. U amaliyotchi shifokorlar va akademik tibbiyot vakillariga bemorlarni davolashning zamonaviy usullari hamda tibbiy amaliyotdagi yangi yutuqlardan xabardor bo'lib borish imkonini beradi. Nigeriyada barcha shifokorlar litsenziyani saqlab qolish uchun belgilangan miqdordagi uzluksiz tibbiy ta'lim birliklarini taqdim etishlari talab etiladi.

Farmatsevtika sanoati o'z savdo vakillari orqali uzluksiz tibbiy ta'lim ma'ruzalariga, shuningdek, butun fakultet yoki alohida shifokorlarning kasbiy konferensiyalarda ishtirok etishiga homiylik qiladi. Ular bunday uchrashuv va konferensiyalarda ovqatlanish xarajatlarini ham qoplab, bir vaqtning o'zida o'z mahsulotlarini reklama qiladi. Bunday munosabatlar manfaatlar to'qnashuvini yuzaga keltirishi va bemorlarga ko'rsatiladigan tibbiy yordamga tijorat manfaatlarining ta'sir ko'rsatishiga olib kelishi mumkinligi aniqlangan. Mamlakatimizda bunday homiylikning farmatsevtika sanoati uchun moliyaviy qiymati o'rganilmagan. Biroq AQShda farmatsevtika kompaniyalari akkreditatsiyadan o'tgan uzluksiz tibbiy ta'lim xarajatlarining 60 foizigacha qismini moliyalashtiradi [21].

Jahon sog'liqni saqlash tashkiloti (JSST) manfaatlar to'qnashuvini sog'liqni saqlash tizimida samarali boshqaruv, shaffoflik va jamoatchilik ishonchini ta'minlash bilan bevosita bog'liq masala sifatida baholaydi. JSSTning 2022-yilda e'lon qilingan "Managing conflicts of interest" nomli qo'llanmasida manfaatlar to'qnashuvining oldini olish va uni boshqarish farmatsevtika sohasi bo'yicha qarorlar qabul qilish jarayonida jamoat salomatligini himoya qilishning muhim kafolati sifatida ko'rsatilgan [22]. Xususan, dori vositalarini tanlash, ro'yxatdan o'tkazish, xarid qilish, kompensatsiya qilish va ularni qo'llash bo'yicha qarorlar manfaatdor shaxslarning moliyaviy yoki boshqa ikkilamchi manfaatlari ta'siridan xoli bo'lishi lozim.

JSSTga ko'ra, manfaatlar to'qnashuvini tartibga solishda mutanosiblik, shaffoflik, hisobdorlik va adolatlilik prinsiplari muhim ahamiyatga ega. Mazkur yondashuv tibbiy xizmatlar ko'rsatishda shifokorlar, farmatsevtika kompaniyalari, diagnostika markazlari va boshqa subyektlar o'rtasidagi munosabatlarni ochiq va nazorat qilinadigan huquqiy mexanizmlar asosida tashkil etishni talab qiladi. Shu bois shifokor yoki tibbiyot muassasasining farmatsevtika kompaniyalari bilan moliyaviy, tashkiliy yoki shaxsiy aloqalari mavjud bo'lgan hollarda, bunday manfaatdorlik oshkor qilinishi, tibbiy qaror qabul qilish jarayonida esa bemor manfaatlari ustuvorligi ta'minlanishi zarur.

JSSTning dori vositalarini targ'ib qilish bo'yicha etik mezonlarida dori targ'iboti ishlab chiqaruvchilar va distribyutorlar tomonidan dori vositalarini tavsiya etish, yetkazib berish, xarid qilish yoki ulardan foydalanishga undashga qaratilgan axborot beruvchi va ishontiruvchi faoliyat sifatida talqin qilinadi. Shu sababli dori vositalarini reklama qilish, shifokorlarga sovg'alar berish, bepul namunalar taqdim etish, konferensiyalar va uzluksiz tibbiy ta'lim tadbirlariga homiylik qilish kabi amaliyotlar qat'iy etik va huquqiy mezonlar asosida tartibga solinishi lozim. Aks holda, bunday munosabatlar shifokorning kasbiy xolisligiga, retsept yozish amaliyotiga va bemorning sifatli hamda xavfsiz tibbiy yordam olish huquqiga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin.

Shu nuqtayi nazardan, JSST yondashuvi O'zbekiston Respublikasi sog'liqni saqlash tizimida ham manfaatlar to'qnashuvini aniqlash, manfaatlarni majburiy deklaratsiya qilish, ichki nazorat va komplayens tizimini kuchaytirish, shifokorlar va farmatsevtika kompaniyalari o'rtasidagi aloqalarni shaffoflashtirish hamda bemor huquqlarini himoya qilishga qaratilgan aniq huquqiy mexanizmlarni ishlab chiqish zarurligini asoslaydi.

Xulosa qilib aytganda, tibbiy xizmatlar ko'rsatish jarayonida manfaatlar to'qnashuvi bemorning sog'lig'i, xavfsizligi, malakali va xolis tibbiy yordam olish huquqiga bevosita ta'sir ko'rsatadigan muhim huquqiy va etik muammo hisoblanadi. Shifokor yoki tibbiyot muassasasining moliyaviy, tashkiliy yoxud shaxsiy manfaatlari bemor manfaatlaridan ustun qo'yilgan hollarda tibbiy qarorlarning mustaqilligi, ilmiy asoslanganligi va adolatlilik xavf ostida qoladi.

Tahlillar shuni ko'rsatadiki, manfaatlar to'qnashuvi har doim ham ochiq huquqbuzarlik shaklida namoyon bo'lmaydi. U ko'pincha farmatsevtika kompaniyalari bilan hamkorlik, sovg'alar, homiylik, bepul dori namunalari, pullik xizmatlarga yo'naltirish yoki tibbiy qarorlarning iqtisodiy manfaatlar ta'sirida qabul qilinishi orqali yashirin ko'rinishda yuzaga keladi. Ayniqsa, dori vositalarini targ'ib qilish, "detailing" va "e-detailing" amaliyotlari shifokorlarning retsept yozish faoliyatiga ta'sir ko'rsatishi mumkinligi sababli alohida huquqiy tartibga solishni talab etadi.

Shu sababli tibbiyot sohasida manfaatlar to'qnashuvining oldini olish faqat umumiy odob-axloq qoidalari bilan cheklanmasligi lozim. Bu borada manfaatlarni majburiy oshkor qilish, bemorni xabardor qilish, farmatsevtika kompaniyalari bilan munosabatlarning aniq chegaralarini belgilash, tibbiyot muassasalarida ichki nazorat va komplayens mexanizmlarini kuchaytirish, shuningdek, javobgarlik choralari aniq belgilash zarur.

O'zbekiston Respublikasida ushbu institutni takomillashtirish bemor huquqlarini himoya qilish, tibbiy xizmatlar sifatini oshirish, shifokorlarning kasbiy mustaqilligini ta'minlash va sog'liqni saqlash tizimiga bo'lgan jamoatchilik ishonchini mustahkamlashga xizmat qiladi. Shu bois tibbiy xizmatlar ko'rsatishda manfaatlar to'qnashuvini aniqlash, oldini olish va bartaraf etish bo'yicha kompleks huquqiy mexanizmlarni ishlab chiqish bugungi kunda dolzarb ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etadi.

## IQTIBOSLAR/CHOCKI/REFERENCES:

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. Yangi tahrir. 2023-yil 30-aprel.URL: <https://lex.uz/docs/-6445145>
2. Tonelli MR. Conflict of Interest in Clinical Practice. Chest. 2007;132(2):664–670.URL: [https://journal.chestnet.org/article/S0012-3692\(15\)37464-X/abstract](https://journal.chestnet.org/article/S0012-3692(15)37464-X/abstract)
3. Tibbiyot xodimlarining odob-axloq kodeksi. O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirining 2022-yil 24-martdagi 88-son buyrug'i bilan tasdiqlangan.Rasmiy manba: <https://gov.uz/oz/zarafshon/news/view/129434>
4. Kassirer JP, Angell M. Financial conflicts of interest in biomedical research. N Engl J Med. 1993;329(8):570–571.
5. URL: <https://www.nejm.org/doi/abs/10.1056/NEJM199308193290810>
6. Brax H, Fadlallah R, Al-Khaled L, Kahale LA, Nas H, El-Jardali F, et al. Association between physicians' interaction with pharmaceutical companies and their clinical practices: A systematic review and meta-analysis. PLoS One. 2017;12(4). URL: <https://journals.plos.org/plosone/article?id=10.1371/journal.pone.0175493>
7. Blumenthal D. Doctors and drug companies. N Engl J Med. 2004;351(18):1885–1890. URL: <https://pubmed.ncbi.nlm.nih.gov/15509823/>
8. Fadare JO, Oshikoya KA, Ogunleye OO, Desalu OO, Ferrario A, Enwere OO, et al. Drug promotional activities in Nigeria: Impact on the prescribing patterns and practices of medical practitioners and the implications. Hosp Pract (1995). 2018;46(2):77–87.URL: <https://pubmed.ncbi.nlm.nih.gov/29426263/>
9. Schramm J, Andersen M, Vach K, Kragstrup J, Kampmann JP, Søndergaard J. Promotional methods used by representatives of drug companies: A prospective survey in general practice Scand J PHC. 2007;25:93–7 doi: 10.1080/02813430701339659
10. Şahne BS, Yeğenoğlu S, Üner MM, Wertheimer AI. Adherence of drug advertisements to the international marketing codes. Hacettepe University Journal of the Faculty of Pharmacy. 2012;32(1):53–66. URL: <https://dergipark.org.tr/en/pub/hujpharm/article/639002>
11. Khazzaka M. Pharmaceutical marketing strategies' influence on physicians' prescribing pattern in Lebanon: Ethics gifts, and samples BMC Health Serv Res. 2019;19(80) doi: 10.1186/s12913-019-3887-6
12. Revenue of the worldwide pharmaceutical market from 2001 to 2019 (in billion US dollars) <https://www.statista.com/statistics/263102/pharmaceutical-market-worldwide-revenue-since--2001/>. Accessed May 15, 2020
13. Roy N, Madhiwalla N, Pai SA. Drug promotional practices in Mumbai: A qualitative study. Indian J Med Ethics. 2007;4(2):57–61. URL: <https://pubmed.ncbi.nlm.nih.gov/18630221/>
14. Cooper RJ, Schriger DL. The availability of references and the sponsorship of original research cited in pharmaceutical advertisements. CMAJ. 2005;172(4):487–491.URL: <https://pmc.ncbi.nlm.nih.gov/articles/PMC548410/>
15. Taber E, Whitesell J. Physician interaction with pharmaceutical companies: New rules and nationwide trends Northern Ohio Physician. 2009;94:1–3 <https://www.tuckerellis.com/files/physician-interaction-with-pharmaceutical-companies.pdf>. Accessed January 31, 2019.

16. Randhawa GK, Singh NR, Rai J, Kaur G, Kashyap R. A critical analysis of claims and their authenticity in Indian drug promotional advertisements. *Adv Med*. 2015;2015:469147. URL: <https://pubmed.ncbi.nlm.nih.gov/26556557/>
17. Alam K, Shah AK, Ojha P, Palaian S, Shankar PR. Evaluation of drug promotional materials in a hospital setting in Nepal. *South Med Rev*. 2009;2(1):2–6. URL: <https://pmc.ncbi.nlm.nih.gov/articles/PMC3471165/>
18. Rohra DK, Gilani AH, Memon IK, Perven G, Khan MT, Zafar H, et al. Critical evaluation of the claims made by pharmaceutical companies in drug promotional material in Pakistan. *J Pharm Pharm Sci*. 2006;9(1):50–59. URL: <https://pubmed.ncbi.nlm.nih.gov/16849008/>
19. Grande D, Shea JA, Armstrong K. Pharmaceutical industry gifts to physicians: Patient beliefs and trust in physicians and the health care system. *J Gen Intern Med*. 2012;27(3):274–279. URL: <https://pmc.ncbi.nlm.nih.gov/articles/PMC3286560/>
20. Latten T, Westra D, Angeli F, Paulus A, Struss M, Ruwaard D. Pharmaceutical companies and healthcare providers: Going beyond the gift – an explorative review. *PLoS One*. 2018;13(2). URL: <https://journals.plos.org/plosone/article?id=10.1371/journal.pone.0191856>
21. Khakhkhar T, Mehta M, Shah R, Sharma D. Evaluation of drug promotional literatures using WHO guidelines. *J Pharm Negative Results*. 2013;4:33–38. DOI: <https://doi.org/10.4103/0976-9234.116770>
22. Abdulah DM, Perot KA. Pharmaceutical promotions and trustworthiness on new drug prescribing among physicians in public general hospitals. *J Hosp Adm*. 2019;8(6):17–23. URL: <https://www.sciedupress.com/journal/index.php/jha/article/view/16133>
23. World Health Organization. Managing conflicts of interest: a how-to guide for public pharmaceutical-sector committees in low- and middle-income countries. Geneva: World Health Organization; 2022. Licence: CC BY-NC-SA 3.0 IGO. URL: <https://www.who.int/publications/i/item/9789240057982>.



**YURIST AXBOROTNOMASI**  
4-SON

**ВЕСТНИК ЮРИСТА**  
НОМЕР 4

**LAWYER HERALD**  
ISSUE 4

**ISSN 2181-9416**  
**DOI JURNAL: 10.34920/2181-9416/2026/4**  
**2026-YIL**